



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILAR IJODIY FOALIYATINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI.

Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi

Qo'qon Universiteti o'qituvchisi

Alijonova Mohlaroy To'lqinjon qizi

Qo'qon Universiteti talabasi

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich ta'lim o'quvchilari ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi, o'quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish usullari, yo'llari va samaradorligi yoritilgan.

Abstract: The article describes the technology of organizing the creative activities of primary school students, the methods, ways and effectiveness of organizing the creative activities of students.

Аннотация: В статье описана технология организации творческой деятельности учащихся начальных классов, методы, способы и эффективность организации творческой деятельности учащихся.

Kalit so'zlar: Ijodiy faoliyat, o'qish, mashg'ulot, boshlang'ich ta'lim, o'quv jarayoni, o'qituvchi, o'quvchi faoliyati, hamkorlikda o'qitish.

Key words: Creative activity, study, training, primary education, educational process, teacher, student activity, cooperative teaching.

Ключевые слова: Творческая деятельность, учеба, обучение, начальное образование, учебный процесс, учитель, деятельность учащихся, совместное обучение.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev "Bugungi kunda "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart!" degan hayotiy da'vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o'rin egallagan" deb ta'kidlab o'tgan. Yoshlar va ularga davlat hamda jamiyatning munosabati to'g'risida Prezidentimiz tomonidan quyidagi fikrlar bildirilgan "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh



kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.”

Darhaqiqat, hozirgi kunda Respublikamizning barcha ta'lim muassasalarida o'quvchi-yoshlarning yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlash ko'nikmasiga ega bo'lishlari, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgani, jahon standartiga javob beradigan o'quv xonalari, axborot-kommunikatsiya, zamonaviy laboratoriya jihozlari bilan ta'minlaganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimi yaratilgan bo'lib, boshlang'ich ta'lim jarayoni o'quvchi shaxsining rivojlanishi, atrof-olamni idrok etishi, bilimlarni o'zlashtirishi, malaka va ko'nikmalar, ilmiy tasavvurlarining hosil bo'lishida muhim bosqich hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchisida bilish jarayoni ijodiy faoliyat natijasida yuz beradi. O'quvchining berilgan topshiriqni bajarishi jarayonida izlanishi, ijodiy faoliyati namoyon bo'lishi uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan, me'yor va mezonlarga ega bo'lgan, o'z-o'zini anglagan faoliyat zaruriyati seziladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faollikni shakllantirish texnologiyasi ishlab chiqish muammosi ko'p qirrali pedagogik-psixologik ijtimoiy vazifalardan biri bo'lib, jamiyat ijtimoiy rivojlanishi va taraqqiyoti uchun dolzarb vazifalardan biridir. Ijodkorlik- faoliyatning turli holatlarida paydo bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi ijodiy faoliyatning har qanday kurtaklari ta'lim-tarbiya, faoliyatdan tashqarida kamol topa olmaydi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalardagi yashirin iste'dodlarni yuzaga chiqarish, kichik maktab yoshidan boshlab o'z faoliyatini namoyon qilish uchun imkoniyat yaratish, ulardagi ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish kelajakda yuksak salohiyatli, ijtimoiy faol, o'tkir zehqli, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan raqobatbardosh kadrlarni voyaga yetkazish garovi bo'lib hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarda ijodiy faollikni shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Maktab va o'qituvchining vazifasi o'quvchilarga ta'lim berishgina emas, balki ularning qobiliyatlarini ham o'stirishdan iborat. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirishga mo'ljallangan turli ijodiy topshiriqlardan foydalanish asosida o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikr yuritishga zamin hozirlash mumkin.

Quyida shunday topshiriqlarni tashkil qilish shakllaridan namunalar keltiramiz:

1. O'quvchilarni ijodiy faollikka chorlash. O'quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlaydigan o'qituvchi eng avvalambor o'quvchilarda taqdim qilinayotgan o'quv materialiga qiziqishni uyg'otish zarur. Buning uchun u:

Asosiy mavzuni bayon etishga o'quvchilarni qanday yo'l bilan qiziqtirishi mumkin?

- Oddiy bo'lmagan ma'lumotlarni so'zlab berish
- Barcha o'quvchilarga to'g'ridan-to'g'ri taaluqli bo'lganlar haqida gapirib berish.
- So'zlash jarayonida xolisona va aniqlashtirilgan ma'lumotlarni taqdim qilish.
- Obrazli solishtirishlardan unumli foydalanish.

2. Keltiriladigan obrazlar, solishtirishlardan unumli foydalanish va ular me'yoriga amal qilish.

3. Qay tarzda o'quv axborotini tugatish lozim?

O'quvchi nutqining so'ngida quydagilarga amal qiladi;

- Ma'ruza davomida qarab chiqilgan asosiy fikirlarni qisqacha bayon etish:
- Ma'ruza mavzusi bo'yicha birorta jumlani ta'kidlash:
- Qo'yilgan muammo haqida o'quvchilarni ijodiy o'ylashga undash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faollikka undash davomida o'qituvchi:

1. O'quvchilarni obrazli fikrlashga undash.
2. Fikrning doimo tugallangan jumla bilan hamda muhim joylariga urg'u berib ajratgan holda ifoda etishi.
3. Hushmuomilali va ziyrak bo'lishi.
4. Quyidagi so'z birikmalaridan foydalanish: "faraz qilish", "tasavvur qilish", "ijodiy parvoz eting" va shu kabilar.
5. Ko'rish kontakti (bog'lanishi) ni saqlashga harakat qilishi – tinglovchilarga qarashga harakat qilish (har bir qatnashchiga 30 soniyadan).
6. Aniq muammoni burro ifodalashi.
7. Har bir javob va taklifni doimo rag'batlantirish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta'lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor yo'nalishlarini



izlanuvchi ta'lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta'limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi.

Ijodiy faoliyat ta'limning 3 turi orqali shaxsning ijodiy faoliyati, bilishga doir faoliyati, tashkiliy faoliyati kabi sifatlarning shakllanishi asosida rivojlanadi va bular ta'limning noan'anaviy shakl va metodlari vositasida samarali natijalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko'ramiz. || O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq- T.: << O'zbekiston>> NMIU, 2016. – 13-6.
2. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARGA TA'LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583.
3. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 208–211. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>
4. Axadjon o'g'li, A. A. (2023). ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI. Qo 'qon universiteti xabarnomasi, 333-338.
5. Akhrorjon, A., & Zumradkhan, K. (2022). The impact and results of membership of the wto on the education system. Educational Research in Universal Sciences, 1(5), 24-32.
6. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG'LANISH ASOSIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 198–201. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505>
7. Mirzaliyevna, S. Z. (2023). BOSHLANG 'ICH SINFLAR O 'QUVCHILARINI IJODKORLIKKA O 'RGATISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH METODIKASI (O 'QISH VA ONA TILI



- O 'QISH SAVODXONLIGI DARSLARI MISOLIDA". Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 598-603.
8. JS Ikromjonovna, X Muazzamxon "O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI" Educational Research in Universal Sciences 2 (14), 806-81
 9. Asilova S.X. (2022). THE ESSENCE OF TEACHING PRIMARY SCHOOL PUPILS TO LOGICAL THINKING IN THE PROCESS OF MATHEMATICS. Экономика и социум, (2-1 (93)), 24-26.